

**O'ZBEK SAN'ATIDA NAQSHLARNI O'RGANISH VA O'QUVCHILARNI
BADIY IJOD KORLIGINI RIVOJLANTIRISH**

Nasrullaeva Zilola Nizomiddin qizi

*Samarqand Davlat Universiteti Pedagogik ta'lif fakulteti san'atshunoslik
kafedirasiga*

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbek tarixiy me'morchilik yodgorliklari, amaliy bezak san'atida geometrik naqsh turlaridan biri bo'ligan girix naqshining vujudga kelishi va Samarqand shahridagi masjid va saroylarning bezalishida girix naqishlarning keng qo'llanilishi yoritilgan. Xoja Ahror Valiy masjidi markaziy shiftida naqsh va uning geometrik girex yechimi keltirilgan.

Kalit so'zlar: me'morchilik, naqsh, geometriya, girix, beshburchak, yulduz.

O'zbek me'morchiligi va naqqoshlik san'ati bilan butun dunyoga mashhurdir. Ajdodlarimiz yaratgan tarixiy me'morchilik yodgorliklarining bizgacha yetib kelishini sababi o'zbek xalqining o'z san'atini nihoyatda sevib, e'zozlashi natijasidir. Me'morchilik va naqqoshlik san'atining ravnaq topishiga xalqimizning ijodkorligi, go'zallikga intilishi va yaratuvchanlik salohiyati sabab bo'la oladi. Ana shunda me'morchilik va naqqoshlik san'ati o'tmishida qanday usulda rivoj topgan, ularning chizmalari qanday bo'lgan degan savol tug'iladi.

Xalq amaliy san'ati bo'yicha berilayotgan bilimlar o'quvchilarda estetik didni o'stirishi bilan bir qatorda, ularni idrok etish madaniyatini va ijobiy munosabatlarni shakillantirishga ham xizmat qiladi. Shuningdek, o'quvchilarda dekorativ amaliy san'at asarlarining estetik mohiyatini tushunib yetishga ham ko'maklashadi. O'zbek xalqining qadimiy ma'morchiligi, amaliy san'atining eng qadimiy turlaridan naqqoshlik san'atining tarixi, rivojlanishi, xalq amaliy san'atining jozibasini anglatish va ularda ana shu san'at sirlarini tahliliy asosda o'rganishga qiziqish uyg'otish imkonini beradi.

Naqqosh bu naqsh chizuvchi san'atkordir. Naqqoshlik esa naqsh chizish, naqsh yaratish, badiiy ijodkorlik, xalq amaliy san'atining qadimiy turlaridan biridir. Naqqoshlik ayniqsa sabr-toqat, mustahkam asab, yuksak qunt talab qiluvchi hunardir. Jahonga mashhur bo'lgan buyuk olim va mutaffakkirlar Al Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Nosir Xisrav, Nizomiy Ganjaviy, Umar Hayyom, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi tarixiy shaxslar kishilik madaniyati taraqqiyoti uchun o'zlarining ilmiy - badiiy ijodlari bilan katta hissa qo'shganlar. Ular jozibador go'zalliklar insonlar qalbiga doimo shodlik baxsh etib, har qanday g'am-g'ussa va istiroblarni yenga olishiga ishonganlar. Alisher Navoiy esa naqqoshlar hunaridan zavqlanib, ularga el oldida boqiy umr tilagan. Bu olimlar va mutaffakkirlar naqsh gullarining topilishi va takomillashishiga ham o'z hissalarini qo'shganlar.

"INTEGRATION, EVOLUTION, MODERNIZATION: WAYS OF DEVELOPMENT OF SCIENCE AND EDUCATION"

O'zbek naqqoshlari usta Shirin Murodov, usta Mahmud Usmonov, usta Saidmahmud Norquziyev, usta Olimjon Qosimjonov, usta Madaminjon Husayinov kabi ustalar qadimiy ma'moriy yodgorliklarni ta'mirlash, bino devorlarini bezashda o'zlarining ilmiy tajribalarini, istedodlarini va betakror mahoratlarini namoyon etganlar.

Bizning zamonamiz taddiqotchilari bo'lgan I.L.Rempel, G.A. Pugachenkova, M.S.Bulatov. P.Sh.Zohidov kabi olimlar Markaziy Osiyo me'morchilik obidalarining qurilishi ulardagi naqshu - nigorlarni tahlil qilganlar. Bu o'rinda I. L. Rempelning "Архитектурный орнамент Узбекистана" nomli kitobida keltirilgan manbalarda Samarqand shahrining Ulug'bek madrasasi (XV asr) devoridagi geometrik girixli koshin va uning yechimiga alohida e'tiborni qaratish mumkin. Shuningdek Z. Bositxonovning girix san'ati sir-asrорlariga bag'shlangan "Xandasiy naqsh (girix)larning yechimlari" kitobida ham 100 ga yaqin girix namunalari bilan birga ularni yasashda zarur bo'lgan izohli yechimlarini ham ko'ramiz.

Naqsh arab tilidan tasvir, gul degan ma'noni anglatib, elementlari ma'lum tartibda takrorlanadigan geometrik shakillar, o'simlik, qush, hayvon va boshqalarning sxematik tasviridan tashkil topadigan bezakdir. Naqsh ganchkorlik, yog'och o'ymakorligi, kandakorlik, toshtaroshlikda qo'llanilib, ganch, yog'och, mis, toshga o'yib, qirqib, qog'oz, mato, yog'ochga tush, turli bo'yoqlarda chizib, bo'yab hosil qilinadi. Kulolchilikda esa chizma, bosma, qalam singari usullarda bo'yab, sirlab qoliplar yordamida hosil qilinadi.

Geometrik naqsh turlaridan biri girix bo'lib, chigal, tugun ma'nosini anglatadi. Handasaviy (geometrik) naqsh murakkab naqsh turidir. Geometrik naqsh murakkab naqsh hisoblanib to'rtburchak, uchburchak, aylana bo'lib yoylardan, ko'p burchaklardan iborat bo'ladi. Tuzilishi jihatidan to'g'ri chiziq, egri chiziq va aralash chiziqlardan tashkil topgan girixga bo'linadi.

Girixlar chizish sirlari qadimdan hozirgi kunimizgacha avloddan avlodga o'tib kelgan. O'zbekistonning me'moriy yodgorliklarida mingga yaqin girix nusxalari saqlanib qolgan. Girixlar geometrik yasash usullari orqali chiziladi. Geometrik yasash har bir kishiga geometrik shakillar, chiziqlarning tashqi go'zalligidan zavq olishgagina emas, balki o'zallikning asosida yotuvchi mutanosiblik va simmetriyaning matematik asosini tushunishga ham imkon beradi.


Ma'lumki XIV –XVI asrlarda Samarqand saroy devorlari monumental naqshlar bilan bezatilgan. Bu davrlarda yirik mashtabli geometrik naqshlar me'moriy bezaklarda ko'p qo'llanilgan. Masjid va madrasalarning interyerlari markazi ko'p qirrali yulduzsimon naqshlar bilan bezatilgan.

Qadimgi pifagorchilar ham besh uchli yulduzni muqaddas simvol deb hisoblaganlar. Besh burchak esa bu – tomonlarining soni diagonallari soniga teng bo'lgan yagona muntazam ko'pburchakdir. Yulduzsimon beshburchak shunisi bilan qiziqki, birinchi navbatda bu shaklni tashkil etuvchi beshta chiziqnинг har biri, boshqasini oltin kesim nisbatiga asosan kesib o'tadi. Shuningdek geometrik naqsh

"INTEGRATION, EVOLUTION, MODERNIZATION: WAYS OF DEVELOPMENT OF SCIENCE AND EDUCATION"

unsurlarining ramziy ma'nolari bo'yicha besh burchak-tabiat, besh qirrali yulduz-hayotning qisqaligini, besh kunlik dunyo, islomning besh ustuni ma'nolarini anglatadi.

1-rasmida Samarqand shahridagi Xoja Ahror Valiy masjidi (XV asr) markaziy shiftidagi naqsh va uning geometrik girix yechimi keltirilgan.



1-rasm. Samarqand. Xoja Ahror Valiy masjidi, markaziy shiftdagি naqsh. (XV asr).

Geometrik girix markazida 12 tartibli yulduzsimon ko'pburchak va geometrik shakllar bilan bog'langan beshburchakli yulduz tasviri aks ettirilgan.

O'bek me'moriy bezaklaridagi girix naqshlarning rang gammalari asosini qizil va ko'k bo'yoqlar, to'q havo rang, sarg'ish, ko'kimtir, pushti rangga xos gammalarni tashkil etgan.

Ajdodlarimiz yaratgan O'zbek me'moriy bezaklaridagi girix naqshlarni yosh avlodga o'rgatish asosiy maqsadimiz hisoblanadi. Tasviriy va amaliy san'at ma'naviy sog'lom avlod tarbiyasi masalasini ijobji hal etishda keng imkoniyatlarga egadir. Chunki yoshlarmiz aynan tasviriy va amaliy san'at darslari orqali san'at va sah'atkor olami, san'atning ijtimoiy vazifasi, o'ziga xos xususiyatlari, amaliy san'at va me'morchilikdagi guzalliklarni ko'ra bilish, anglash, ularni baholash, qadrlash va muhofaza qilishni o'rganib boradilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. P. Sh. Zoxidov."Me'mor olami". T. Qomuslar bosh tahriri. 1996.
2. P. Sh Zohidov, "Zeb ichra ziynat". T. G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. 1985.
3. I.L.Rempel."Архитектурный орнамент Узбекистана". Т. Государственное издательство художественной литературы Узбекистана. 1961.
4. S.I. Afonina . "Matematika va guzallik". T. O'qituvchi.1987.
5. Z.Bositxonov. "Xandasiy naqsh (girix) larning yechimlari. T. Ochiq Jamiyati Instituti Ko'mak Jamg'armasining O'zbek vakolatxonasi. 1998.
6. I.Azimov. "O'zbekiston naqshu nigorlari". T. G'. G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti.1987.